

TA'LIMDA INKLYUZIVLIK: TENG IMKONIYATLAR

Rashidova Ruxshonaxon Rustamjon qizi talaba

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyot 2-fakulteti

+998908535586

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lismi, uning mohiyati, asosiy tamoyillari, metodlari va jahon ta'lismi amaliyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lismi har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lismi olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Maqolada inklyuziv ta'lismi natijalari, uning ijtimoiy integratsiyaga qo'shgan hissasi va O'zbekistonda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'lismi tatbiq etishda duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lismi, teng imkoniyatlar, maxsus ehtiyojlar, ijtimoiy integratsiya, ta'lismi tizimi, inklyuziya, nogiron bolalar, differensial yondashuv, ta'lismi metodlari.

I. Kirish

Inklyuziv ta'lismi – bu har bir o'quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab ta'lismi olish huquqini ta'minlashni maqsad qilgan ta'lismi tizimi va yondashuvidir. Bunda barcha o'quvchilar, shu jumladan nogironligi bor yoki maxsus ta'limga muhtoj bolalar, birgalikda ta'lismi oladilar. Inklyuziv ta'lismi, ta'linda tenglik va barcha o'quvchilarning huquqlarini hurmat qilishga asoslanadi. Bugungi kunda yurtimizda inklyuziv ta'lismi tushunchasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'plab universitet va maktab o'quvchilari uchun ushbu ta'lismi to'g'risida boshlang'ich bilim va tajribalar berilib, ular bu ta'lismi tizmiga tayyorlanmoqdalar. Shuningdek, bu ta'lismi natijalarini ya'ni vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1. Barcha o'quvchilarni qamrab olish. Inklyuziv ta'linda har bir o'quvchiga individual ehtiyojlariga mos ta'lismi sharoitlari taqdim etiladi, shuningdek, ular birgalikda ta'lismi olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
2. Teng imkoniyatlar yaratish. Ta'lismi jarayonida har bir o'quvchiga, uning ehtiyojlariga qarab, sharoitlar yaratish va har biriga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini taqdim etish.
3. Ijtimoiy integratsiya. Inklyuziv ta'lismi o'quvchilarni nafaqat akademik, balki ijtimoiy va emosional jihatdan ham integratsiyalashga yordam beradi. Bu ta'lismi natijalaridan biri bo'lib, o'quvchilarni bir-birini tushunishga, hurmat qilishga va o'zaro yordam ko'rsatishga o'rgatishdir.

4. Differensial yondashuv. O'quvchilarning turli ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ta'lif jarayonini moslashtirish. Masalan, maxsus vositalar (audiokitoblar, qo'llab-quvvatlash texnologiyalari) yoki individual yordamchilarni jalg qilish[1].

II. Usullar

Ta'lif samaradorligini oshirish uchun o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan uslublaridan foydalanish mumkin, shuningdek, mакtabda bolalar uchun qulay sog'lom va xavfsiz muhit yaratish va binobarin, ular ota onalari yaqinida, ularning ko'magida salohiyatini to'liqroq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inklyuziv ta'lif mavjud jismoniy, intelektual, ijtimoiy, lingvistik va boshqa xususiyatlarga qaramay, har bir bolaga umumiyl yaxlit ta'lif va tarbiya rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayoniga qo'shilish imkoniyatini beradigan ta'lif. Bu esa o'sib ulg'aygan shaxsning, jamiyatdagi teng huquqli a'zosi bo'lishiga imkon beradi, ajralish va yakkalanish xavfini kamaytiradi[2]. Inklyuziya alohida ta'limga muhtoj bolalarni ommaviy maktablarda kiritish imkoniyatini beradi, bu yerda har bir bolaning ta'lif jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun barcha to'siqlar olib tashlanishi muhim hisoblanadi. Bolaga imkon beradi ,o'ziga ishonishga va dunyoga ishonishga yo'l ochadi. Nuqsonli bolalarga qulayliklar yaratish, bola extiyojlari e'tiborga olinadi. Imkoniyati cheklangan boladao'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rghanishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lif jarayonida ota onalar bilan ishslash ham muhim. Ta'kidlash joizki , alohida ehtiyojli bolalarning ota onalariga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Bundan tashqari inklyuziv ta'limga nogiron bolalar, nuqsonlarini bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim konikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel olib borish talab etiladi[3]. Shu o'rinda shunday savol kelib chiqadi: Inklyuziv ta'lif nimani anglatadi va u biz uchun kerakmi? Bu savolga hamma turlicha javob beradi. Keling, birgalikda O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis senatining Fan, ta'lif va sog'liqni saqlash qo'mitasi ekspertlar kengashi a'zosi Oybek Isoqovning fikrlariga to'xtalamiz. Oybek Isoqov: "Qonun loyihasida inklyuziv ta'limga ta'rif berishdan boshlash kerak"ligini, alohida ta'kidlagan. U quyidagi ta'rifni qonunga kiritishni taklif qiladi: "Inklyuziv ta'lif — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lif ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lif muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir"[4].

III. Natijalar

Jahon ta'lifi amaliyotida ham ta'lif oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lif sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lif ehtiyojlari xilma-xillagini hisobga

olgan holda ta'lif berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lif g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi[5]. YUNESKOning ijtimoiy fanlar sohasidagi dasturlari inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lif olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyatga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'lifni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lif jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda[6]. Shu jihatdan o'qituvchilarni ta'lifda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta'lif samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lifda sog'lom tengqurlari bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lif olish ehtiyojini jahon standartlari asosida ta'minlashda tashkilotlararo maqsadli va amaliy natijalarga yo'nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi.

IV. Muhokama

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lif bu bir so'z bilan aytganda, tenglik ya'ni qanday, nogironligi bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarning ta'lif olish jarayonidagi tenglikdir. Shu o'rinda bir fikr keladi, rostdan ham nogironligi bo'lgan bolalar ham o'zları xohlagandek ta'lif olish huquqiga egadirlar. Ammo tananing narigi tomoni ham bo'lganidek, nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan sog'lom o'quvchilar bir vaqtida bir joyda ta'lif olishsa, inklyuziv ta'lif asosida o'qiydigan talabalarga qandaydir achinish xissi paydo bo'lishi yoki ularga nisbatan o'qituvchilarda ham qandaydir yonbosish paydo bo'lishi mumkin. Shu paytda ushbu ta'lif tizimi ozgina pand berishi mumkin. Ular albatta, qaysidir payt biror masala yuzasidan kelisholmay qolsalar, nogironligi bo'lgan o'quvchilarni kamsitib, ularga nisbatan yomon so'zlar ya'ni kamsitib yuborishlari mumkin. Ammo yangilik ketidan quvib, uni rivojlanishi uchun sidqidildan kurashishimiz darkordir. Mamlakatimizda ham inklyuziv ta'lif oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lif va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilganligi biz kabi bo'lajak boshlang'ich ta'lif mutahassislarini ham juda quvontirdi, albatta.

V. Xulosa

Inklyuziv ta'lif har bir bolaning ta'lif olish huquqini ta'minlashga qaratilgan muhim yondashuv bo'lib, unda barcha o'quvchilar, shu jumladan nogironligi bo'lgan bolalar, umumiylar ta'lif jarayonida ishtirok etadilar. Bu tizim ta'lifda tenglik, ijtimoiy integratsiya va inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Jahon tajribasi shuni

ko'rsatmoqdaki, inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun ta'lim muassasalari moslashtirilishi, o'qituvchilarning kasbiy tayyorlarligi oshirilishi va jamiyatning ushbu jarayonga tayyorligi ta'minlanishi lozim. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limga katta e'tibor qaratilib, qonunchilik va ta'lim tizimida tegishli o'zgarishlar amalgalashirilmoqda. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni amaliyatga tatbiq etishda duch kelinadigan muammolarni bartaraf etish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nogironligi bo`lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-son Farmoni. 2017-yil 1-dekabr.
2. R.Sh. Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma Toshkent-2011
3. R.M. Po'latova Maxsus Pedagogika Toshkent-2018 3. L.R Mo'minova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent -2004 yil.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/>
5. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim" Qo'qon-2023
6. X. N. Muzaffarova, D. Tangirova „Inklyuziv ta'lim“. library.samdukf.uz. Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil.